



Irgashev Toxir Anvarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

Ziyaviddinov Zafar Zoirovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

O'QUVCHI YOSHLARDA MILLIY G'OYA TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli, barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim yo'nalishidagi islohotlar milliy mafkuramiz g'oyalarini hayotga tadbiq etishga qaratilgan bo'lib, ushbu maqolada o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari xususida so'z yuritiladi.

Tayanch iboralar: vatanparvar, salohiyat, ma'naviy tarbiya, kelajak bunyodkori, umuminsoniy qadriyat, insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, bilimlilik va onglilik, odillik, iste'dod.

Иргашев Тохир Анварович

Преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Зиявиддинов Зафар Зоирович

Преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЙ У СТУДЕНТОВ МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

Содержание коренных реформ, проводимых в Республике Узбекистан, направлено на воспитание молодого поколения духовно зрелыми, интеллектуально способными, всесторонне развитыми личностями. Сегодня образовательные реформы направлены на реализацию идей нашей национальной идеологии, и в данной статье говорится о дидактических возможностях формирования у учащихся чувства национальной идеи.

Ключевые слова: патриот, потенциал, духовное воспитание, творец будущего, общечеловеческие ценности, гуманизм, прогрессивность, образованность и сознательность, справедливость, талант.

Irgashev Tahir Anvarovich

Teacher of the Military Training Center
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Ziyaviddinov Zafar Zoirovich



Teacher of the Military Training Center
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

DIDACTICAL OPPORTUNITIES FOR FORMING A SENSE OF NATIONAL IDEAS IN YOUTH STUDENTS

ANNONTATION

The content of the fundamental reforms carried out in the Republic of Uzbekistan is aimed at educating the younger generation as spiritually mature, intellectually capable, comprehensively developed individuals. Today, educational reforms are aimed at implementing the ideas of our national ideology, and this article talks about the didactic possibilities of developing a sense of the national idea in students.

Key words: patriot, potential, spiritual education, creator of the future, universal human values, humanism, progressiveness, education and consciousness, justice, talent.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarida yoshlarni ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoiy etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqiga "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo'yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar - kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylandi. Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish bo'yicha yagona tizimni yaratish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 30 iyun kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

O'z navbatida, Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatni yangi bosqichga olib chiqilishiga, yoshlar xayoti, ularning kelajagi uchun yangi sahifa ochilishiga sobit qadam bo'ldi.

O'zbekiston tajribasida amalga oshirilmagan, ya'ni 30 yoshga to'lmagan yosh kadrlarni vazir o'rinbosari, hokim, hokim o'rinbosari, hamda korxonalar va tashkilot rahbari



lavozimlariga tayinlash tizimi joriy etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba 30 iyun kuni "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Qisqa davr mobaynida asosiy e'tibor Yoshlar ittifoqi faoliyatiga oid normativ xuquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ushbu hujjatlar asosida respublika miqyosida rivojlangan xorijiy davlatlar orasida namunali yoshlar tashkilotini yaratishga e'tibor qaratildi.

Agar raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko'magi asosida o'tgan bir yil mobaynida Yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir jami 26 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasining 2 ta Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmoni, 4 ta qarori, 1 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori va 3 ta farmoyishi imzolandi, Yoshlar masalalari bilan bog'liq 70 ga yaqin normativ-xuquqiy hujjatga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda shahar va tumanlar Kengashi rahbarligiga ko'p yillik tajribaga ega, salohiyatli, bilimli 33-35 yosh atrofida bo'lgan, eng avvalo kelajakda qo'rqmasdan hokimlik lavozimiga tavsiya etish mumkin bo'lgan nomzodlar saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 avgustdagi PQ3206-son Qarori asosida Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutini tashkil etildi.

Bugungi kunda Yoshlar ittifoqi tizimlarida faoliyat yuritayotgan yosh kadrlar, 250 dan ortiq vazirlik, idora va tashkilotlardagi tegishli lavozimlar zaxirasiga kiritildi.

Mazkur islohotlar amalda yuksak ma'naviyatli yoshlarimizning chinakam barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun zamin yaratib berdi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'ladi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish, xususan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqgini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yunaltilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g'oya asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlarni berib kelmoqda.

Mamlakatda yoshlarni har tomonlama bilimli, salohiyatli hamda farovon hayot kechirishi yo'lida ko'rsatilayotgan ana shunday g'amxo'rliklar navqiron avlodni Vatanga muhabbat, istiqbol g'oyalariga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda yuksak samaralar bermoqda.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan muammo yechimiga mos kelishi kerak. Bular zamonaviy ta'lim tizimida millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borishi va boshlang'ich ta'limda savodxonlik asoslarini puxta egallashi, hisoblash tafakkurini shakllantirilishi, mehnat ko'nikmalari hamda shaxs ma'naviyati elementlarini o'quvchilarda tarkib toptirish va shu kabilar orqali hal etiladi.

Bu borada o'quvchilar ma'naviy tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilar ma'naviy tarbiyasida esa ulardagi milliy g'oya tuyg'usini shakllantirish ham o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishda yo'naltiruvchi (ilhomlantiruvchi) didaktik omil bo'lib hisoblanadi. Shu sababli ham mazkur tadqiqotimizda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy metodologik jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni boshlang'ich ta'limdan boshlash ahamiyatli va istiqbollidir. Chunki, bu orqali o'quvchilar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini egallagan, Vatanning istiqbolini o'ylaydigan, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga munosib hissa qo'sha olish mumkinligini ongli ravishda his qila oladilar. Bu tabiiyki boshlang'ich ta'limga katta ma'suliyat yuklaydi.

Hozirda tadqiqot ishimizga qo'yilgan masalani hal qilishga yurtimizda keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar mavjud. Bunga hozirda davlatimiz tomonidan barkamol avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni asos qilib olish mumkin, ya'ni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli, iymoni butun, e'tiqodi mustahkam bo'lgan barkamol avlodni shakllantirish hozirda davlat siyosatiga aylangan va bularda, ya'ni barkamol avlod tarbiyasida, esa quyidagi asosiy g'oyalarni olg'a surmoqda.

Vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik va onglilik, taraqqiyparvarlik, hurfikrlilik, baynalminalchilik va shu kabilar. Bu kabi g'oyalar o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishda "ma'naviy ozuqa" olish va muhim didaktik asos bo'lish vazifalarini ta'minlashga ko'maklashadilar.

Hozirda o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko'pgina didaktik imkoniyatlar mavjud. Ushbu sohada olib borgan tadqiqotlarimizda bunday didaktik imkoniyatlarni quyidagi ketmaketlik asosida tayyorlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi:

- oilada farzandlardagi ma'naviy sifatlarni tarbiyalash;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ma'naviy sifatlari elementlarini tarkib toptirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi interfaol – qiziqarli mashg'ulotlar mazmuniga milliy g'oya tuyg'usiga oid materiallarni integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya jarayonidagi dars mazmunini ma'naviyatga oid ma'lumotlar bilan boyitish;
- o'quvchilarni milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishga oid jarayonlarda mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- o'quv adabiyotlari mazmuniga qo'yilgan ma'naviy-axloqiy talablarni qaytadan ko'rib chiqish;



- o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishda donishmandlar hikmatlaridan foydalanish;
- o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish;
- an'anaviy ta'lim mazmuniga, milliy g'oyaga, oid bilimlarni integratsiyalash va shu kabilar.

Demak, o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishga oid ko'plab didaktik imkoniyatlarni topsa bo'ladi va ulardan o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda samarali foydalanilsa, shubhasiz, ijobiy pedagogik samaralar qo'lga kiritiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, o'quvchi yoshlar qalbiga va ongiga milliy g'oyani singdirish ta'lim muassasalaridagi faqat ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi o'quv rejasidan o'rin olgan barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi.

Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim - tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, o'quvchilarda Vatan tuyg'usini shakllantirish Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muxabbat uyg'otish va boyliklarini asrab avaylash, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ekologik madaniyatni yuksaltirishni maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vatanga mehru - sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir

Shunga ko'ra, hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan, o'zida yuksak ahloqiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli tanlab, puxta o'zlashtirgan, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, turmushga moslashgan, sog'lom turmush tarzi va mehnat ko'nikmalari shakllangan, jamiyat, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi / Sh.M.Mirziyoev. -T.: O'zbekiston, 2016,70-b.

3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017,104- b.



4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni //Oliy ta'lim. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. - T.: Istiqlol, 2004, Z-8-b.

5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonuni // Oliy ta'lim me'yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. - T.: Istiqlol, 2004, 9-23-6.

